



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA  
INNOVATSION G'OYALAR



“QOMUS AL-A’LOM”DA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING  
UMUMIY TAVSIFI

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В  
«КАМУС АЛЬ-АЛАМ»

GENERAL DESCRIPTION OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA IN  
“QAMUS AL-ALAM”

**Mansurov Isroiljon G‘ofur o‘g‘li**

*Turan International University Gumanitar fanlar va pedagogika*

*kafedrası o‘qituvchisi [isroilmansurov12@gmail.com](mailto:isroilmansurov12@gmail.com)*

*Tel: +998940661661*

**Annotatsiya:** *ushbu tadqiqotda Shamsiddin Somiyning “Qomus al-a’lom”da nomlari qayd etilgan: qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz xalqlari haqida ma’lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek ularning hayot tarzi va aholisining o‘ziga xos xususiyatlariga oid ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, Sibir, Zarafshon daryosi, juzlar.*

**Аннотация:** *в данном исследовании имена Шамсиддина Сами упоминаются в «Камус аль-Аламе»: представлены казахский, каракалпакский, кыргызский народы. Также представлена информация об их образе жизни и специфических особенностях населения.*

**Ключевые слова:** *казахи, каракалпақы, кыргызы, Сибирь, река Заравшан, джужлар.*

**Abstract:** *in this study, the names of Shamsiddin Sami are mentioned in “Qamus al-Alam”: Kazakh, Karakalpak, Kyrgyz peoples are presented. Information about their lifestyle and specific characteristics of the population is also provided.*

**Key words:** *Kazakh, Karakalpak, Kyrgyz, Siberia, Zarafshan River, juz.*

XIX asrda Markaziy Osiyo hududida etnik qavmlarning ko‘pchiligini o‘zbek, tojik, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq, qozoqlar tashkil etgan. Ularning yashash tarzi mintaqaning bir qismida boshqacha bo‘lsa, ikkinchi qismida tubdan farq qiladi.

Markaziy Osiyodagi eng yirik turkiy qavm hisoblangan o‘zbekla o‘troq hayot kechirishgan. Qudratli qavm hisoblangan o‘zbeklar XIX asrda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining tub aholisi hisoblanishgan. Ular sunniylikka e‘tiqod qilib, fiqhda hanafiy, aqidada moturidiy hisoblanishgan.

Qoraqalpoqlar turkiy xalqlaridan biri bo‘lib, XIX asrda Xorazm va Astraxan o‘rtasida joylashgan. Ular Sibirning Tubolsk viloyatida, Zarafshon vodiysida, Farg‘ona vodiysi chegarasida va boshqa hududlarda boshqa xalqlar bilan qorishib yashaydilar. Asosan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ko'chmanchilik bilan hayot kechirishsa ham, ularning aksariyati o'troq va qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lishgan. Ular Amudaryoning quyi oqimi atrofidagi nam cho'llarda ko'pchilikni tashkil etib, aholisi 52 ming kishi. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina Xiva xonligidagi qoraqalpoqlar soni 125 ming atrofida bo'lib, umumiy 200 ming nafar bo'lishi kerak. Qoraqalpoqlarning qomatlari keng, yuzlari tekis, ko'zlari katta, burunlari kalta, iyaklari keng va qo'llari kattadir. Erkaklari juda baquvvat hisoblanishadi. Ayollari esa eng go'zallardan hisoblanadi<sup>67</sup>.

Qirg'izlar ham turkiy qavim bo'lib, ko'chmanchi holda hayot kechirishgan. Ular Osiyoning shimoli-g'arbiy qismida, xususan Markaziy Osiyoning shimoliy qismida hamda Rossiya va Xitoy chegarasida joylashishgan. G'arbiy tarafdagilar (qirg'iz-qozoq) va Xitoy chegarasidagilar (qora qirg'izlar) deb ataladi.

Qirg'iz nomi "Qir" so'zidan olingan bo'lib, qir odami, ya'ni badaviy degan ma'noni bildiradi. Birinchilari, ya'ni qirg'iz qozoqlari Rossiyaning Volga bo'yidan Sharqiy Turkiston chegarasigacha bo'lgan keng va uzun mintaqada joylashgan bo'lib, ularning hududi taxminan 2 500 000 kvadrat kilometrni tashkil qiladi. Bu vodiylarda (Aladag') va (Tarbag'a tog'i) kabi ba'zi tog'lar mavjud. Ularning etaklari dehqonchilik yerlari bo'lib, Rossiya davlati qirg'iz xalqini o'z qo'lida ushlab turish uchun bir qancha qozoqlar bilan birga o'rtnashib olgan.

Boshqa tomondan, o'rmonlar va oqar suvlar kamligi yoki yo'qligi sababli cho'l bo'lib, faqat ba'zi yaylovlarni o'z ichiga oladi va qirg'izlar u yerda chodirlar tikib ko'chib yurishadi. Ular asta-sekin Rossiyaga bo'ysundirildi va 1860-yilda imzolangan Pekin shartnomasiga ko'ra, Xitoy davlati qirg'izlarni himoya qilish da'vosidan voz kechishga majbur bo'ldi. Bu hududlarda Rossiyaga 6 viloyat ya'ni g'arbdan boshlab: Uralsk, To'rg'ay, Sirdaryo(ya'ni Sayhun), Oqmo'la, Semiplatinsk va Semirechye qarashlidir. Qirg'iz yerlarida Volga va Uraldan tashqari Sibir tomon oqib, shimoliy dengizga quyiladigan Tubol, Eshim va Irtish daryolari janubdan shimolga oqib, (Ob) daryosiga quyiladi.

Qirg'iz qozoqlari Katta, O'rta va Kichik juz deb nomlangan uch guruhga bo'lingan va eng kam ustunlik qiladigan juz sharqda, o'rta juz markazda va Toshkent tarafda, kichik juz Sirdaryo va Orenburg viloyatlariga bo'linadi. Hatto ichki juz deb ataladigan va Ural va Volga oralig'idagi Yevropa hududida yashovchi toifalar ham kichik juzdan erkin harakat qilishadi<sup>68</sup>. Hamma qirg'izlarning soni haqida to'g'ri fikr bildirish mushkul va bu borada har xil hisob-kitoblar qilingan bo'lsa-da, eng to'g'ri hisob shundan iboratki, ularning soni 3 milliondan ortiq bo'lib, ular qaysi viloyatga yashashiga qarab quyidagicha taqsimlangan:

Viloyat	Qirg'iz qozoqlari	Qora qirg'izlar
Orenburg	27.000	-
Astraxan	129.465	-

<sup>67</sup> Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1896. V C. – B. 3640

<sup>68</sup> Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1896. V C. – B. 3797





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yuqori Kaspiy	136.000	-
Ural	415.000	-
To'rag'ay	266.000	-
Akmolinsk	325.814	-
Amudaryo	65.000	-
Semiplatinsk	472.656	-
Semirechye	317.000	157.000
Sirdaryo	494.800	34.600
Farg'ona	25.000	100.000
Gulcha	33.400	6.500
Sharqiy Turkistan	-	21.000
Pomir (mustaqil hudud)	-	20.850
Yakuniy	2.747.135	340.950
Umumiy	3.088.085	

### XULOSA

Ensiklopediyada alohida turkman, tojiklar uchun alohida maqola mavjud bo'lmay, faqatgina Teke turkmanlari haqida ma'lumot beriladi. Ular Xiva va Marv o'rtasidagi turkman qabilalaridan biri bo'lgan. Ruslarning u yerni istilosida rus askarlariga qarshi uzoq vaqt qarshi turib berishgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Şemseddin Sami. Kâmûsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1889-98. VI C.
2. Agah S.L. Şemsittin Sami. Ankara: Türk dil kurumu, 1969. 210 s
3. Boymirza Hayit. Turkiston Rossiya va Xitoy oraliq'ida. Toshkent:Yangi asr avlodi, 2023. 528 b
4. Xudoyorxonozoda. Anjum at-tavorix. Toshkent: Fan va texnologiya. 2014, 348 b
5. Omonbek Jalilov. XIX-XX asr boshlaridagi qoraqalpoq tarixidan. Toshkent: Fan, 1986. 140 b
6. Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy. Tarixi jahonnamoyi. Toshkent: ToshDTU bosmaxonasi, 2012. 439 b